

Hakim Mamanovich Rasulov

Termiz davlat pedagogika instituti professori, siyosiy fanlar nomzodi

E-mail: rhm1973@mail.ru

Tel: +998915897492

UDK: 091.122 (172.14)

SIYOSIY TAFAKKUR FENOMENI: MOHIYATI, TARKIBIY QISMLARI VA SHAKLLANISH OMILLARI

Annotatsiya. Maqolada siyosiy tafakkur tushunchasining mohiyati, tarkibiy qismlari, shakllanish omillari tahliliga e'tibor qaratilgan. Unda siyosiy tafakkur fenomenining namoyon bo'lish xususiyatlariga e'tibor berilgan. Siyosiy tafakkur fuqarolarning mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning strategik maqsadlarini anglash, baholash va ushbu jarayonda faol ishtirok etish qobiliyatini ifoda etuvchi hodisa sifatida o'rganilgan. Siyosiy tafakkurning dinamik yuksalishi, jamiyat taraqqiyotiga nisabatan obyektiv baho, tanqidiy munosabat, xolis siyosiy yondoshuv shakllanishidagi o'rni ko'rsatilgan. Jamiyat siyosiy tafakkurining yuksalishi barqaror taraqqiyotga va demokratik tamoyillarga muvofiqligini asoslashga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: siyosiy tafakkur, siyosiy madaniyat, demokratik tamoyillar, siyosiy voqelik, hokimiyat, davlat va jamiyat munosabatlari, siyosiy bag'rikenglik, huquq ustuvorligi, qonun ustuvorligi.

Хаким Маманович Расулов

профессор Термезского государственного педагогического института,

кандидат политических наук

E-mail: rhm1973@mail.ru

Тел: +998915897492

ФЕНОМЕН ПОЛИТИЧЕСКОЙ МЫСЛИ: СУЩНОСТЬ, СОСТАВНЫЕ ЧАСТИ И ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ

Аннотация. Статья посвящена анализу сущности, компонентов и факторов формирования понятия политического мышления. Особое внимание уделено особенностям проявления феномена политического

мышления. Политическое мышление рассматривается как феномен, выражающий способность граждан понимать, оценивать и активно участвовать в достижении стратегических целей реализуемых в стране реформ. Показана динамика развития политического мышления, его роль в формировании объективной оценки развития общества, критического отношения и беспристрастного политического подхода. Предпринята попытка обосновать тот факт, что развитие политического мышления в обществе соответствует принципам устойчивого развития и демократии.

Ключевые слова: политическая мысль, политическая культура, демократические принципы, политическая реальность, власть, отношения государства и общества, политическая толерантность, верховенство права, верховенство закона.

Hakim Mamanovich Rasulov

Professor of Termez State Pedagogical Institute,

Candidate of Political Sciences

E-mail: rhm1973@mail.ru

Phone: +998915897492

THE PHENOMENON OF POLITICAL THOUGHT: ESSENCE, COMPONENTS AND FORMING FACTORS

Abstract. The article focuses on the analysis of the essence, components, and factors of formation of the concept of political thinking. It focuses on the features of the manifestation of the phenomenon of political thinking. Political thinking is studied as a phenomenon that expresses the ability of citizens to understand, evaluate, and actively participate in the strategic goals of the reforms being implemented in the country. The dynamic rise of political thinking is shown, its role in the formation of an objective assessment of the development of society, a critical attitude, and an impartial political approach. An attempt is made to substantiate the fact that the rise of political thinking in society is consistent with sustainable development and democratic principles.

Key words: political thinking, political culture, democratic principles, political reality, power, state and society relations, political tolerance, rule of law, rule of law.

Kirish.

Inson doimo zamon bilan hamnafas yashashga harakat qiladi. Shu sababli ham balki jamiyat taraqqiyotiga muvofiq unda tafakkur shakllanadi. Mustaqil dunyoqarash va zamonaviy tafakkurga ega bo'lmagan inson nafaqat davlat rivojini balki, o'z manfaatlarini ham ifoda etolmaydi. Shundan kelib chiqib jamiyat taraqqiyoti doimo zamonaviy tafakkurga ega odamlarga ehtiyoj sezadi. Ayniqsa global dunyoda turli g'oya, mafkura, siyosiy maqsadlar kurashi goh oshkora, goh pinhona o'zligini namoyon qilayotgan, siyosiy kurashlarning natijasini oldinda aytib berish qiyin bo'lgan dunyoda barqaror turmoqlik uchun ham jamiyat o'zida millat manfaatlari, yuksak vatanparvarlik tuyg'ulari asosida shakllangan siyosiy tafakkuriga ega bo'lishi kerak. Siyosiy tafakkur zaruriyati davlat siyosatini, xalqaro munosabatlarni obyektiv baholashda namoyon bo'ladi. Bu jarayon jamiyatning siyosiy savodxonlik darajasi, siyosiy xulq-atvori orqali amalda ko'rinadi. Shu asosda shakllangan siyosiy tafakkur jamiyat siyosiy madaniyatining yuksalishida asosiy omilga aylanadi.

Adabiyotlar tahlili.

Ilmiy adabiyotlarda siyosiy tafakkur fenomeni alohida hodisa sifatida yetarlicha tahlil etilmagan. Faqat bu tushunchani siyosiy bilim, siyosiy ong, siyosiy madaniyat kabi hodisalar bilan o'zaro mutonasiblikda mavjud bo'lishi o'rganilganligini kuzatish mumkin. To'g'ri siyosiy tafakkur alohida holatda shakllanmaydi. Uning mavjudligi siyosiy bilim va siyosiy ongda namoyon bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, siyosiy tafakkur fenomenini alohida siyosiy hodisa sifatida tadqiq qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

“Tafakkur” etimologik jihatdan arab-fors tillarida uchraydigan “tafakkuriya” ya'ni, bizningcha “fikr qilmoq”, “anglamoq”, “aqlga tayanmoq” kabi mazmunni ifoda etadi. Tafakkur hodisasi falsafiy, mantiqiy, psixologik tadqiqotlarning obyektidir. Yuqoridagi fanlar o'z tadqiqot obyekti va predmetiga ko'ra

muammoning alohida jihatlarini tahlil qiladi. Shu bilan birga ijtimoiy ongning alohida munosabatlari aks etiruvchi hodisa sifatida siyosiy jarayon va munosabatlar strategiyasini anglash jarayonida siyosiy tadqiqotlarning ham obyektiga aylanib ulgurdi. Alisher Navoiyning “Har ishnikim qilmish odamizod, tafakkur birla bilmish odamizod” [1], degan satrlari mazkur tushunchaning ijtimoiy mohiyatini teranroq ochib berishga xizmat qiladi.

Faylasuf Arnold Toynbi ta’kidlaganidek: “Har qanday jamiyatning yuksalishi yoki tanazzuli uning aholisining ma’naviy va fikriy qobiliyatiga bog‘liq”dir [10].

Tadqiqot metodologiyasi.

Siyosiy tafakkur fenomeni, mohiyati, tarkibiy qismlari va shakllanish omillarini yoritib berishga qaratilgan mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning analogik tahlil, germeneytik tahlil, ijtimoiy-falsafiy tahlil kabi metodlaridan keng foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar.

Insonning siyosiy voqelikni anglash darajasi, fuqarolik pozitsiyasi, huquqiy ongi va demokratiyaga bo‘lgan munosabati aynan siyosiy tafakkur orqali shakllanadi. Shu jihatdan jamiyat taraqqiyotida siyosiy tafakkur muhim o‘rin tutadi. Siyosiy tafakkur – bu faqat muayyan bilimlar majmuasi emas, balki jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga faol ta’sir ko‘rsatuvchi tafakkur turi, dunyoqarash va madaniyat ko‘rinishidir. Boshqacha aytganda, Siyosiy tafakkur – bu fuqarolarning mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning strategik maqsadlarini anglash, baholash va ushbu jarayonda faol ishtirok etish qobiliyatini ifoda etuvchi fikrlash shaklidir. Shu bois jamiyat siyosiy tafakkurini bir “qolip”ga solish, muayyan siyosiy mafkuralarga “bo‘ysundirish” uning erkinligiga tahdid bo‘ladi. Siyosiy tafakkur erkin bo‘lmagan jamiyatda mafkuraviy hukmronlik, siyosiy tahdidlar, byurokratik munosabatlar hukmron bo‘ladi [7].

Ma’lumki, taraqqiyotning muvaffaqiyati faqat iqtisodiy yoki texnologik islohotlar bilan bog‘liq emas, balki jamiyat a’zolarining siyosiy ongi, faolligi va mas’uliyati bilan ham chambarchas bog‘liq. Shu jihatdan siyosiy tafakkur

fenomeni jamiyat taraqqiyotining g'oyaviy, madaniy va institutsional asoslarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Siyosiy tafakkur – individual holatda bu shaxsning siyosiy voqelik, hokimiyat, davlat va jamiyat munosabatlariga doir masalalarni mustaqil anglash, tahlil qilish va idrok eta olish darajasidir. Shu asosda insonning siyosiy bilimi, siyosiy dunyoqarashi, ijtimoiy pozitsiyasi va axloqiy qadriyatlarini o'z ichiga oladi. Siyosiy tafakkurning namoyon bo'lish xususiyatlari ham bevosita ana shu jarayonlar bilan bog'liq. Siyosiy tafakkurning namoyon bo'lishiga ko'ra xususiyatlarini quyidagicha farqlash mumkin.

Davlat siyosatida doimo global va lokal darajada jamoatchilik e'tiborida bo'lishi tabiiy holatga aylanib qoldi. Shunday ekan, davlat siyosatiga tanqidiy tahliliy yondoshuv ikki jihatdan amalga oshirilishi kerak. Birinchisi tashqi, ya'ni xalqaro va mahalliy darajada jamoatchilikning munosabati, ikkinchisi ichki ya'ni o'z-o'zini tanqid va tahlil qilish. Aksariyat hollarda tashqi tanqidlardan to'g'ri xulosa chiqarib, o'z-o'zini tahlil qilib borish davlat siyosatining barqarorligida muhim omil bo'la oladi. Shundagina jamiyatdagi siyosiy jarayonlarga, hodisalarga va qarorlarga nisbatan ongli, mantiqiy, dalilga asoslangan munosabatni shakllanadi. Bu jarayon siyosiy tafakkurning yuksalishida, siyosiy bilimlarni to'g'ri tahlil qilish, voqelikni xolis baholash va asoslangan tizimli xulosa chiqarish imkoniyatini beradi. Davlat boshqaruvida tanqidiy va tahliliy yondoshuv siyosiy tafakkurga aylanmas ekan, barqaror rivojlanishga qaratilgan siyosat o'z samarasini bermaydi. O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, “tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbarni - bu Bosh vazir yoki uning o'rinbosarlari bo'ladimi, hukumat a'zosi yoki hududlar hokimi bo'ladimi, ular faoliyatining kundalik qoidasi bo'lib qolishi kerak” [4].

Siyosiy voqealarga xolis baho berish fuqaroning siyosiy voqealarga shaxsiy manfaatlar, ehtiroslar yoki bir yoqlama g'oyaviy ta'sirlarsiz, haqqoniy va asosli yondashuv bilan munosabatda bo'lishiga asoslanadi. Bunday yondashuv jamiyatda ongli siyosiy fikrlashni shakllantiradi va barqaror siyosiy muhitni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yangilanayotgan O'zbekiston siyosiy hayotidagi

o'zgarishlar dinamikasi ham siyosiy jarayonlarga xolis baho berilgandagina to'la namoyon bo'ladi. "Aynan shu maqsadda biz taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'yar ekanmiz, salohiyat va imkoniyatlarimizni xolis baholash bilan birga, xato va kamchiliklarimizni ham atroflicha tanqidiy tahlil qildik" [5].

Yana bir o'rinda mamlakatda siyosiy voqelarga mustaqil, erkin va xolis baho berishi zarur bo'lgan OAVlar faoliyati bilan bog'liq masalalarga e'tibor qaratib, uning "hokimiyat va boshqaruv organlari faoliyatiga tanqidiy va xolis baho berish, turli sohalaridagi kamchiliklar, dolzarb muammolarni dadil ko'tarib chiqish ular faoliyatida asosiy mezon bo'lishi kerak" [5].

Maqsadli faollik fuqarolik pozitsiyasining amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Agar insonda mustahkam fuqarolik pozitsiyasi bo'lsa, u jamiyatda o'zgarish qilishga intilgan holda, aniq maqsadlar asosida faol harakat qiladi. Ya'ni, faqat fikr bildirish emas, balki amaliy harakatlar orqali fuqarolik mas'uliyatini bajaradi.

Globallashuv va raqamli texnologiyalar taraqqiyoti siyosiy tafakkurga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, yosh avlodning siyosiy tafakkuri ijtimoiy tarmoqlar va internet orqali shakllanmoqda. Bu xususda Yurgen Xabermas shunday yozadi: "Asl demokratiya faqat axborotga ega bo'lgan emas, balki uni tahlil qila oladigan va to'g'ri xulosa chiqaradigan fuqarolar orqali rivojlanadi" [2].

Xulosa.

Jamiyat siyosiy tafakkuri dinamik xususiyatda rivojlanadi. Unga jamiyat siyosiy tizimining o'zgarishi yoki unda ro'y berayotgan modernizatsiya jarayonlari, davlat siyosatidagi demokratik va nodemokratik munosabatlar hamda ijtimoiy jarayonlardagi pozitiv va negativ yondashuvlar, jiddiy ta'sir qiladi. Shu jihatdan siyosiy tafakkurning yuksalish dinamikasini quyidagi omillarga ko'ra farqlash mumkin.

Birinchidan, mamlakatdagi ta'lim islohotlari, xususan siyosiy-huquqiy ta'limning global o'zgarishlarga monand yangilanishi, ta'lim sifatining oshib borishiga uzviy bog'liq. Shundagina siyosiy-huquqiy ta'lim jamiyat siyosiy

tafakkurining yuksalishiga asos bo'la oladi. Ongli, bilimli, mas'uliyatli fuqarolar – har qanday islohotning muvaffaqiyatli amalga oshishida asosiy omil hisoblanadi.

Ikkinchidan, mamlakatda siyosiy tafakkur amaliyoti bilan bog'liq axborot makonining shakllanganligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ommaviy axborot vositalari faoliyati erkin, ochiq, pragmatik talablarga javob bersagina jamiyatda amalda ochiqlik va so'z erkinligi ta'minlanadi. Fuqarolarda axborotni erkin va mustaqil tahlil qila olish ko'nikmalarining shakllanishi jamiyat siyosiy ongining o'sishiga, pirovardida siyosiy tafakkurning yuksalishiga olib keladi. O'z navbatida xolis, ishonchli, tahliliy, obyektiv xususiyatdagi kontentlar fuqarolar siyosiy tafakkurining erkin shakllanishida muhim omillar hisoblanadi.

Uchinchidan, huquqiy davlat negizida fuqarolik jamiyatining amalda shakllanganligi ham jamiyat siyosiy tafakkuri erkin shakllanishi va yuksalishidagi muhim parametr hisoblanadi. Demokratik va fuqarolik institutlarining mavjudligi jamiyatda siyosiy plyuralizm shakllanishining omillaridir. Fikrlar va qarashlar xilma-xilligi jamiyat siyosiy tafakkuri yuksalishida muhim indikator hisoblanadi.

To'rtinchidan, siyosiy tafakkurning shakllanishi jamiyat siyosiy madaniyatida o'z aksini topishi bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Siyosiy tafakkurda shakllangan siyosiy bag'rikenglik, huquq ustuvorligiga qat'iy ishonch, qonunga hurmat kabi tamoyillar siyosiy va huquqiy madaniyat komponentlari sifatida qaror topadi. Zero, siyosiy va huquqiy madaniyati yuksak fuqarolarda ijtimoiy mas'uliyat, davlat siyosatiga befarq bo'lmaslik va unda ongli ravishda faol ishtirok etish ko'nikmalari mavjud bo'ladi. Bu o'z navbatida siyosiy tafakkurning yuksalishiga olib keladi [6].

Beshinchidan, davlatning huquqiy siyosatida nafaqat qonunchilikda, amalda so'z erkinligi, e'tiqod erkinligi, siyosiy qarashlarda plyuralizm muhiti qaror topgan muhitdagina siyosiy tafakkur erkin yuksaladi. Ijtimoiy adolatning mavjuli, shaffof davlat boshqaruvi, inson manfaatlari ustuvorligiga asoslangan qonunchilik tizimi fuqarolar siyosiy tafakkurida jamiyat strategik maqsadlariga ishonchini oshiradi. Aksincha siyosiy plyuralizm ta'minlanmagan, huquqiy nigilizm ustuvor bo'lgan jamiyatda erkin siyosiy tafakkur shakllanmaydi.

Oltinchidan, jamiyatining ijtimoiy farovonligi, aholining turmush darajasi, moliyaviy-iqtisodiy imkoniyatlarining oshib borishi, fuqarolar siyosiy tafakkurining yuksalishida jiddiy ta'sir qiladigan omillardir. Aksincha iqtisodiy muammolar, moliyaviy vaziyatining yomonligi jamiyat siyosiy tafakkurida davlat siyosatiga va uning istiqbollariga ishonchsizlik tuyg'ularining shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagi omillarning o'zaro mutanosibligi jamiyat siyosiy tafakkuri dinamik yuksalishida muhim omilga aylansa, uning barqaror taraqqiyoti ta'minlanadi. Shuningdek, jamiyat taraqqiyotiga nisabatan obyektiv baho, tanqidiy munosabat, xolis siyosiy yondoshuv shakllanadi. Jamiyat siyosiy tafakkuri qanchalik yuqori bo'lsa, u shunchalik barqaror va demokratik talablarga mos holda shakllanib boradi.

Adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Hikmatlar. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. – 356 b.
2. Habermas J. The Structural Transformation of the Public Sphere. MIT Press, 1991. – P. 89.
3. Huntington S. Political Order in Changing Societies. – New Haven: Yale University Press, 1968. – 508 p.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: "O'zbekiston", NMIU. 2017. – 104 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T.2. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018. – 508 b.
6. Rasulov H. Huquqiy madaniyatni yuksaltirish ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning muhim omil sifatida. Ilmiy tadqiqotlar axborotnomasi. 2023. – T. 1. – No 2. – B. 212-218.
7. Rasulov H. M. Ma'naviy targ'ibotda ilg'or xorijiy tajribalar. Sharq renessansi: Innovatsion, ta'lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar. – 2022. – T. 2. – 10-2-son. – B. 818-826.

8. Toffler A. Future Shock. – New York: Bantam Books, 1970. – 561 p.
9. Локк Дж. О правлении. – Москва: Мысль, 1988. – 405 с.
10. Тойнби А. Постигение истории. – Москва: Прогресс, 1991. – С. 56.